## VII. ISTE'MOL BOZORI

### CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2023- yilning yanvar-sentabrida chakana tovar aylanmasi 13 509,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,6 foizni tashkil etdi.

**Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi**

| | *mlrd. so'm* | *2022- yil yanvar-sentabriga nisbatan foiz hisobida* | *yakunga nisbatan foiz hisobida* |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **13 509,8** | **105,6** | **100,0** |
| *shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:* | | | |
| davlat mulki | - | - | - |
| nodavlat mulki | 4 131,7 | 104,1 | 30,6 |
| undan fuqarolarning xususiy mulki | 9 378,1 | 106,2 | 69,4 |

Savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2023- yilning yanvar-sentabrida 13 509,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,6 foizni tashkil etgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo hajmi joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 7 574,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,6 foizga o'sdi.

**2023- yilning yanvar-sentabrida chakana savdo aylanmasi tarkibi**

| | *mlrd. so'm* | *2022- yil yanvar-sentabriga nisbatan foiz hisobida* | *yakunga nisbatan foiz hisobida* |
|---|---|---|---|
| **Chakana tovar aylanmasi** | **13 509,8** | **105,6** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | | |
| savdo korxonalari | 4 131,7 | 104,1 | 30,6 |
| Yakka tartibdagi tadbirkorlik | 7 574,8 | 105,6 | 56,1 |
| *shundan:* uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati) | 1 803,3 | 109,0 | 13,3 |

## Uyushmagan savdo tovar aylanmasi

**18,8 mlrd.so‘m**

**Tuzlamalar**

**24,3 mlrd.so‘m**

**Quritilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari** (yong‘oq, bodom, pista va boshqalarni qo’shgan holda)

**48,0 mlrd.so‘m**

**Zirovarlar**

**3,9 mlrd.so‘m**

**Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari** (manzarali va qishloq xo‘jaligi)

**24,5 mlrd.so‘m**

**Sut va sut mahsulotlari**

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 919,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (511,2 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

**21,7 mlrd.so‘m**

**Tuxum**

**64,2 mlrd.so‘m**

**Tovuq go‘shti**

**9,2 mlrd.so‘m**

**Chorva mollari va parrandalar uchun har xil yem-hashaklar**

**153,2 mlrd.so‘m**

**Non va non mahsulotlari**

**40,2 mlrd.so‘m**

**Don mahsulotlari (mosh, loviya, no‘xat, guruch va boshqalar) mahsulotlari**

**511,2 mlrd.so‘m**

**Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari**

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslar tanlama kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 884,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 605,6 mlrd. so‘mni, qo‘y va echkilar 236,3 mlrd. so‘mni, otlar 37,1 mlrd. so‘mni, parrandalar 5,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to‘liq tarkibi quydagi ko‘rsatkichlarda o‘z aksini topgan:

### Ulgurji savdo tovar aylanmasi

**Asosiy tarkib,** *foizda*

**Yirik korxonalar** | **Mikrofirma va kichik korxonalar**

Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 442,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 106,2 % ga o‘sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi 634,4 mlrd. so‘mni (o‘zgarish sur’ati 90,5 %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi 3 808,1 mlrd. so‘mni tashkil etib 109,4 % ga o‘sdi.

**O‘sish** (o‘zgarish) **sur‘atlari,** *foizda*




**Savdo aylanmasi hajmi va ulushi**




Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 368,5 mlrd. so‘mni tashkil etib 2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 105,1 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida aholi jon boshiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 103,3 foiz bo‘lib, 3 847,9 ming so‘mni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 13 509,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 105,6 foizga o‘sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 674,5 mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati 139,5 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 457,2 mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati 99,2 %), jismoniy shaxslarning tovar aylanmasi 7 574,8 mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati 105,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 803,3 mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati 109,0 %) tashkil etdi.

**Yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi,** *(mlrd. so‘m)*




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushiga ega bo‘lgan Qarshi shahar va (Viloyat bo‘yicha jami tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 21,9 %), Koson (10,1 %) Chiroqchi (9,5 %), Shahrisabz shahar (9,2 %), va Qamashi tumanlari (6,3 %) chakana savdo tovar aylanmasining o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 674,5 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 139,5 foizni tashkil etdi. Bu esa umumiy savdo hajmining 5,0 % ulushiga to‘g‘ri keladi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 1 1032,0 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 103,5 foizni tashkil etdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 81,7 foizga teng kelmoqda.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi,**
*(jamiga nisbatan foiz hisobida)*



**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**

| | *yirik korxonalar (mlrd.so'm)* | *o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da* | *kichik tadbirkorlik (mlrd.so'm)* | *o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da* |
|---|---|---|---|---|
| **Qashqadaryo viloyati** | **674,5** | **139,5** | **3 457,2** | **99,2** |
| *shaharlar:* | | | | |
| Qarshi | 353,8 | 150,0 | 847,8 | 84,1 |
| Shahrisabz | 20,5 | 70,6 | 344,4 | 105,9 |
| *tumanlar:* | | | | |
| G'uzor | 11,1 | 148,8 | 141,8 | 104,7 |
| Dehqonobod | 4,5 | 87,5 | 120,8 | 102,2 |
| Qamashi | 10,9 | 99,8 | 233,8 | 104,9 |
| Qarshi | 10,0 | 56,3 | 168,5 | 103,1 |
| Koson | 68,2 | 184,3 | 352,8 | 108,3 |
| Kitob | 11,7 | 42,9 | 211,1 | 106,0 |
| Mirishkor | 4,3 | 94,1 | 56,8 | 106,5 |
| Muborak | 38,5 | 136,0 | 103,5 | 105,5 |
| Nishon | 5,0 | 83,3 | 95,3 | 101,6 |
| Kasbi | 23,8 | 3,6 m. | 189,2 | 106,2 |
| Ko'kdala | 13,7 | - | 78,6 | 105,1 |
| Chiroqchi | 38,4 | 90,7 | 225,3 | 106,5 |
| Shahrisabz | 50,6 | 3,4 m. | 90,9 | 102,7 |
| Yakkabog' | 9,5 | 92,7 | 196,6 | 104,4 |

2023- yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik subyektlarining o'sish sur'ati bo'yicha Koson (108,3 %) Mirishkor (106,5 %), Chiroqchi (106,5 %) Kasbi (106,2 %), va Kitob tumanlarida (106,0 %) yuqori darajada bo'ldi. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 5,0 foizni tashkil etib, yirik korxonalarning eng katta ulushi Qarshi shahrida (12,0 %), Shahrisabz (10,2 %) va Muborak (9,2 %) tumanlarida kuzatildi.